



КАЗАНСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБАЙ



«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI, MADANIYATI»

MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA

TOSHKENT - 2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

TOSHKENT - 2025



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rganish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

G.Asilova – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

G.Norimova – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

Tahrir hay'ati:

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,
Y.Shirnova, M.Yo'ldosheva.

Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.



DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025/KLZY8096

ILMIY-OMMABOP USLUBIDAGI MATNNI TUSHUNISHDA LINGVISTIK
BILIMNING O'RNI

Navruzova Xosiyat Izzatullo qizi

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti,**O'zbek tili va adabiyoti ta'limi kafedrası tayanch doktoranti**navruzovaxosiyat363@gmail.com*

Annotatsiya. O'quvchilardagi o'qib tushunish ko'nikmasi barcha fanlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirish uchun muhim ahamiyatga ega. Maqolada 5-sinf o'quvchilarining ilmiy-ommabop uslubda yozilgan matnni tushunishda lingvistik bilim, ya'ni leksik, grammatik va sintaktik ko'nikmalarning roli o'rganiladi. Tadqiqot materiali sifatida 5-sinf "Tarixdan hikoyalar" darsligidagi "Spitamening qahramonligi" matni tanlandi. Topshiriqlar orqali o'quvchilarning olmosh va omonim so'zlarni idrok etishi, o'xshatishlarni anglashi, ko'chirma gaplarni tahlil qilishi, bog'lovchilarning matnni tushunishga ta'siri tadqiq etildi. Tadqiqotda 35 nafar 5-sinf o'quvchisi ishtirok etdi. Tahlillar natijasi shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning ko'chirma gap egasini topish qobiliyati nisbatan yuqori bo'lgan bo'lsa-da, matndagi ishora qilayotgan so'zning ma'nosini tushunish, omonim so'zlar, o'xshatish va "balki" yordamchi so'zi bilan bog'liq murakkab gaplarni anglash bo'yicha past ko'rsatkichlar qayd etildi. Tadqiqot natijalari o'qitish jarayonida o'quvchilarning tahliliy fikrlashini rivojlantirish, matn bilan ishlashda til birliklariga ahamiyat berish zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: *lingvistik bilim, matnni tushunish, ilmiy-ommabop uslub, olmosh, omonim, o'xshatish, ko'chirma gap, bog'lovchi.*

Аннотация. Навыки понимания прочитанного играют важную роль в успешном освоении всех учебных предметов. В статье рассматривается роль лингвистических знаний – лексических, грамматических и синтаксических умений – в процессе понимания текста, написанного в научно-популярном стиле, учащимися 5 класса. В качестве исследовательского материала выбран текст «Героизм Спитамена» из учебника «Истории в рассказах» для 5 класса. Посредством заданий были изучены восприятие местоимений и омонимов, понимание сравнений, анализ прямой речи, а также влияние союзов на понимание текста. В исследовании приняли участие 35 учеников 5 класса. Анализ показал, что хотя учащиеся относительно легко определяли субъект прямой речи, они испытывали трудности в понимании указательных слов, омонимов, сравнений и сложных предложений с отрицательной конструкцией «не только... но и...» (в узбекском: «...gina emas, balki... ham»). Результаты исследования указывают на необходимость развития аналитического мышления учащихся и акцентирования внимания на языковые единицы при работе с текстом.

Ключевые слова: *лингвистические знания, понимание текста, научно-популярный стиль, местоимение, омоним, сравнение, прямая речь, союз.*

Abstract. Reading comprehension skills are crucial for students' successful learning across all subjects. This article explores the role of linguistic knowledge – namely lexical, grammatical, and syntactic skills – in the comprehension of texts written in a popular-scientific style by 5th-grade students. The research material is the text "The Heroism of Spitamen" from the 5th-grade history textbook "Stories from History". Through various tasks, students' understanding of pronouns and homonyms, recognition of similes, analysis of direct speech, and the influence of conjunctions on text comprehension were examined. A total of 35 fifth-grade students participated in the study. The analysis revealed that while students were relatively successful at identifying the subject of direct speech, they showed low performance in understanding referential words, homonyms, similes, and complex sentences that included



the negative correlative construction “not only... but also” (represented in Uzbek as “...gina emas, balki... ham”). The findings suggest that developing students’ analytical thinking and paying attention to linguistic elements in text-based learning is essential.

Keywords: *linguistic knowledge, text comprehension, popular-scientific style, pronoun, homonym, simile, direct speech, conjunction.*

Til ta’limida o’quvchilarning tahliliy va tanqidiy fikrlash ko’nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Maktab ta’limida o’quvchilar barcha fanlarni asosan darsliklar asosida o’rganishadi. Har kuni ular turli fanlarga oid matnlarni o’qib, ushbu matnlar orqali yangi bilimlarni egallashga harakat qiladilar. Darsliklardagi matnlar o’ziga xos uslubiy, leksik va grammatik xususiyatlarga ega bo’lib, ularni to’g’ri tushunish ko’p jihatdan o’quvchining lingvistik bilim darajasiga bog’liq. O’qib tushunish va lingvistik bilimlarning integratsiyalashuvi mazmunli o’rganish jarayonini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. O’qib tushunish sifatiga lingvistik bilimning ta’sirini chuqur tadqiq etish bugungi til ta’limi uchun dolzarb vazifalardan biridir. Lingvistik bilim bilan matnni tushunish o’rtasidagi bog’liqlikni o’rganish maqsadida 5-sinf o’quvchilari o’rtasida tajriba o’tkazildi.

Tajriba materiali sifatida 5-sinflar uchun mo’ljallangan “Tarixdan hikoyalar” darsligidagi “Spitamening qahramonligi” matni tanlandi. Matn asosida quyidagi parametrlar belgilandi:

1. Kishilik olmoshi ishora qilayotgan so’zni topish.
2. “Boshqa” so’zi ishora qilgan mazmunni anglash.
3. Omonim so’z ifodalagan ma’noni tushunish.
4. Ko’chirma gapli qo’shma gaplarda ko’chirma gap kimga tegishli ekanini aniqlash.
5. O’xshatish orqali berilgan mazmunni tushunish.
6. Qo’shma gaplarda “balki” yordamchi so’zi bilan ifodalangan birdan ortiq ma’noni tushuna olish.

35 nafar o’quvchiga ushbu parametrlar asosida 6 ta topshiriq berildi. Quyidagi jadvalda to’g’ri va xato javoblar alohida qayd etildi.

Maktab	Topshiriq	Misollar soni	To’g’ri	Xato
Toshkent viloyati Yangiyo’l tumani 9-maktab 5-“A” 35 nafar o’quvchi	1	1	13	22
	2	1	9	26
	3	1	8	27
	4	1	26	9
	5	1	7	28
	6	1	7	28



Matn asosida tuzilgan 1-topshiriqda o'quvchilarga quyidagi test berilgan.

Sen uchun bizlar parvona... Qo'shiq matnidagi sen olmoshi orqali kimga yoki nimaga murojaat qilingan.

A) Vatanga

B) Spitamenga

C) Qo'shiqqa

D) Sug'diyonaliklarga

O'quvchilarning 37 foizi to'g'ri javob topgan. Matndagi qo'shiq misralarida:

"Gullab-yashna, go'zal Sug'diyona,

Biz shu Vatan o'g'lonlarimiz.

Sen uchun bizlar parvona,

Senga qurbon bo'lsin jonimiz."

Bu yerda "sen" kishilik olmoshi orqali ilgari tilga olingan "Sug'diyona" (ya'ni Vatanni) qayta eslatilmoqda.

Kain va Oakhill bolalar matnni tushunishda ko'pincha olmoshlar orqali ifodalangan ishorani aniqlashda qiyinchilikka duch kelishini tadqiq qilishgan. [1: 132–135] Kintsch ham o'quvchi ishora qiluvchi birlikni tushunish uchun avval ishora qilingan birlikni aniqlab, so'ngra uni ongida faol holatda ushlab turishi kerakligini ta'kidlaydi. [2: 112–118] Bu jarayon xotira, e'tibor va oldingi bilimlar bilan bog'liq murakkab kognitiv faoliyatdir. Qo'shiqdagi "sen" kishilik olmoshi "Sug'diyona"ga ishora qiladi. Bu orqali matnda izchillik, semantik bog'lanish va emotsional ta'sir kuchaytirilgan. Shu sababli xato javob topgan o'quvchilar "Sen" kimga nisbatan ishlatilganini aniqlay olmagan va matn ma'nosidan chalg'igan. Keyingi savol ham ishora qiluvchi birlik bilan bog'liq.

Bosqinchilik urushi davomida Aleksandr yurtimizni bo'ysundirish oson emasligini tushunib yetdi va boshqa usulni qo'lladi. O'quvchilardan **boshqa** so'zi orqali ishora qilingan ikkita usulni yozish so'raldi. O'quvchilarning 74 foizi to'liq javob yozishda qiyinchilikka uchrashgan. Ishora qiluvchi birliklar matn izchilligini ta'minlaydi, ammo ularni to'g'ri talqin qilish o'quvchining oldingi kontekstga qaytish qobiliyatiga bog'liq. [6: 28–35] Bu yerda "boshqa" ko'rsatkichi matndagi ikki usulga bog'liq. Agar o'quvchi bu ikkisini aniqlay olmasa, so'z noto'g'ri tushuniladi. Bu holatni chuqur tahlil qilish esa ta'limda matn tushunish qobiliyatini baholash va rivojlantirishda muhimdir.

Keyingi savol shakldosh so'zlarning tushunilishiga qaratilgan.

Butun Osiyoni oyoqqa turg'azmasidan burun yo'q qilinishi kerak. Ushbu gapdagi burun so'zining ma'nosi izohlangan variant qaysi?

A) Hid bilish a'zosi, shu a'zoning tashqi qismi.

B) Quruqlikning suv havzasiga ko'proq turtib kirgan cho'zinchoq qismi.

C) Ilgari, ilgarigi, o'tgan vaqtlarda

D) Degrezlikda ishlatiladigan, do'kon tarnovlaridan kirgan shamolni ko'mirga yo'naltirish uchun yasalgan quyma cho'yan moslama

O'quvchilarga "Butun Osiyoni oyoqqa turg'azmasidan burun yo'q qilinishi kerak" jumlasida "burun" so'zining matndagi to'g'ri ma'nosini topish vazifasi berilgan. Bu savolda shakldosh so'zlarni farqlash ko'nikmasi sinovdan



o'tkazildi. O'quvchilarning 23 foizigina to'g'ri – ya'ni “ilgari” degan ma'noni tanlagan, ko'pchiligi esa kundalik hayotda eng ko'p uchraydigan anatomik ma'noda – yuzning tashqi qismi sifatida talqin qilgan. Bu holat so'zlar ma'nolarini konteks asosida aniqlay olish malakasining hali yetarli darajada shakllanmaganini bildiradi.

Perfetti va Stafura ta'kidlaydiki, o'qish – bu nafaqat kodni yechish (dekodlash), balki semantik tanlov qilish jarayonidir. Shakldosh so'zlarda aynan to'g'ri ma'noni tanlay olish yuqori darajadagi semantik qayta ishlovni talab qiladi.

O'quvchi matnni o'qir ekan, so'zlarga vaqtincha ma'no yuklaydi, so'ng bu ma'noni konteks asosida tekshiradi va tanlab oladi. Ammo bu qobiliyat shakllanishi uchun ko'proq o'qish va leksik bilim boyligi kerak bo'ladi [5: 22–37].

Kain va Oakhill tadqiqotlarida kam o'qiydigan o'quvchilar ko'p ma'noli va shakldosh so'zlarda an'anaviy, ko'proq ishlatiladigan ma'noga yopishib qolishi ko'p uchraydigan holat sifatida qayd etilgan [3: 70–75].

Matnda “burun” so'zining “ilgari” degan ma'nosi berilgan. Uni to'g'ri anglash uchun o'quvchi matnning vaqt ketma-ketligini aniqlashi, so'zga an'anaviy (anatomya) emas, konteks asosida yangi ma'no yuklashi, voqealar rivojini anglab tahlil qilishi kerak.

Keyingi savol ko'chirma gaplardagi egani topishga qaratilgan. *“Axir, bu quturgan Qoplonni” minglab jangchilar izma-iz quvlayotgan bo'lsa-da, hech qanday kuch uni yenga olmayapti-ku*. Matnda keltirilgan ushbu nutq kim tomonidan aytilgan?

O'quvchilarning 9 tasi to'g'ri javob topa olmagan. Gapning ichki monolog tarzida berilgani, aniq “dedi”, “o'yladi” kabi so'zlar yo'qligi bunga sabab bo'lgan.

5-savolda matnda kimlar “chiyabo'ri”ga o'xshatilgani so'ralgan va quyidagi javob variantlari berilgan..

- A) Spitamen
- B) Vatan xoinlari
- C) Aleksandr
- D) Aleksandrning jangchilari

O'qib tushunish jarayoni bu o'quvchining matndagi ma'no, tasvirlangan voqea va so'zlarning konteksdagi o'zgarishini anglash qobiliyatidir. Savolda “chiyabo'ri” so'zi orqali o'quvchi matndagi xiyonatkor shaxsni anglagan bo'lishi kerak. Buning uchun o'quvchi metafora va kinoya orqali tushunish qobiliyatini rivojlantirishi zarur. O'quvchi tafakkuri matndagi yashirin ma'nolarni, ya'ni konteksdagi semantik bog'liqlikni aniqlashga qaratilgan bo'lishi kerak. Kintsch nazariyasiga ko'ra, o'qib tushunish o'quvchining lingvistik bilimlari (leksik, sintaktik, semantik) bilan o'zaro bog'langan holda muvaffaqiyatli amalga oshadi [4: 45–50].

Keyingi savol yordamida qo'shma gaplarda “balki” yordamchi so'zi bilan ifodalangan birdan ortiq ma'noni tushuna olish tekshirilgan.



Yurtdoshlari Spitamenni nima uchun Qoplon deb atashardi? 7 nafar o'quvchi to'liq javob yozgan, qolganlari balki orqali ifodalangan ikkinchi gap mazmunini tushunmagan.

Parcha ikkita mustaqil sababni bildiradi:

“Yurtdoshlari Spitamenni Qoplon deb atashardi. Unga bunday nom berilishiga uning qoplon terisini ustiga yopib yurishigina emas, balki qoplondek dovyurak va chaqqonligi ham sabab bo'lgan.”

Bu yerda “gina emas... balki... ham” shakli inkor orqali boshlangan va “balki” bilan murakkablashgan qo'shma gap bo'lib, har ikkala sababni o'z ichiga oladi.

O'quvchilar ko'pincha “gina emas”dan keyin kelgan sababni asosiy, “balki”dan keyin kelgan sababni esa ikkinchi darajali yoki ortiqcha deb qabul qilishadi [1: 371–395]. “Balki” bog'lovchisi aslida ehtimollik emas, qo'shimcha asosni bildirgan bo'lsa-da, uni kundalik tildagi noaniqlik ma'nosi bilan chalkashtirishgan.

Matn mazmunini to'g'ri anglash uchun o'quvchi “Qoplon” nomi nima asosda berilgan?” degan savolga ikkala sababni birlashtirib javob topishi kerak. Bu esa o'quvchidan matn ichida bog'lanmagan yoki yashirin ma'lumotni tushunishni talab qiladi.

Kintsch matnni tushunish o'quvchidan faqat so'zma-so'z tahlilni emas, balki tushuncha va sabablar o'rtasida mental model tuzishni talab qilishini tadqiq qilgan. [4: 163–182] Kain va Oakhill murakkab gapli matnlarda sabablarni izchil tushuna olmagan o'quvchilar asosiy xulosani noto'g'ri chiqarishini ta'kidlashgan.

O'quvchilarning ilmiy-ommabop uslubdagi matnlarni to'laqonli anglay olishi ularning lingvistik kompetensiyasiga, xususan, leksik, grammatik va sintaktik bilim darajasiga bevosita bog'liq. O'rganilgan “Spitamening qahramonligi” matni misolida o'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, 5-sinf o'quvchilari matndagi ayrim til birliklarini, ayniqsa ko'p ma'noli so'zlar, o'xshatishlar, olmoshlar, bog'lovchilar kabi vositalarning ma'no va vazifalarini to'liq tushunishda qiynaladilar. Bu esa matnning umumiy mazmunini anglashga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Agar o'quvchida lingvistik bilim yetarli darajada bo'lmasa, u nafaqat ona tili darslaridagi matnni, balki barcha fanlardan berilgan darsliklarning mavzularini ham to'g'ri tushunishda qiyinchilikka duch keladi. Chunki barcha fanlarda o'quv mazmuni matn orqali yetkaziladi va bu matnlarni anglashda til birliklarini to'g'ri talqin qilish muhim ahamiyatga ega. Mazkur holat o'quvchilarda tahliliy va matn asosida fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, matndagi til birliklarini bevosita nutqiy vazifada tushuntirish zarurligini ko'rsatadi. Ta'lim jarayonida matnlar bilan ishlashga oid topshiriqlarni lingvistik jihatdan chuqurlashtirish, o'quvchilarning semantik tahlil qilish kompetensiyasini rivojlantirish muhimdir. Shu boisdan, ona tili va adabiyot darslarida o'quvchilarni o'qib tushunishga o'rgatishda lingvistik bilimlar asosida tahlil qilish, ularni kontekstda qo'llash va matn asosida izohli fikrlashni yo'lga qo'yish zamonaviy ta'lim talablariga to'liq javob beradi. Bu esa o'z navbatida o'quvchining o'quv matni bilan mustaqil ishlash ko'nikmasini



shakllantiradi, tanqidiy fikrlash salohiyatini rivojlantiradi hamda barcha fanlardagi o'zlashtirish darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Adabiyotlar:

1. Graesser A.C., Singer M., Trabasso T. Constructing Inferences during Narrative Text Comprehension // Psychological Review. – 1994. – Vol. 101, No. 3. – P. 371–395.
2. Jo'rayev U. va boshq., Tarixdan hikoyalar: umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. – Toshkent: Cho'lpon nomidagi NMIU, 2020. – 184 b.
3. Kain K., Oakhill J. Children's Comprehension Problems in Oral and Written Language: A Cognitive Perspective. – New York: Guilford Press, 2007. – 182 p.
4. Kintsch W. Comprehension: A Paradigm for Cognition. – Cambridge: Cambridge University Press, 1998. – 403 p.
5. Perfetti C.A., Stafura J.Z. Word Knowledge in a Theory of Reading Comprehension // Scientific Studies of Reading. – 2014. – Vol. 18, No. 1. – P. 22–37.
6. Van Dijk T.A., Kintsch W. Strategies of Discourse Comprehension. – New York: Academic Press, 1983. – 389 p.

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025/JZKK4039

**O'ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O'QITISHDA TINGLAB TUSHUNISH
KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH (A1 VA A2 DARAJALAR MISOLIDA)
РАЗВИТИЕ КОМПЕТЕНЦИИ АУДИРОВАНИЯ В ПРОЦЕССЕ**

Odiljonova Nilufar Abduvahob qizi

*13.00.02 – Ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi yo'nalishi 1-kurs tayanch
doktorant Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish xususida so'z yuritiladi. Qayd etish lozimki, til o'rganishda tinglab tushunish ko'nikmalari ustida ishlash, o'qituvchi tomonidan keltirilgan kompetensiyalarning mazmun-mohiyatini o'quvchilarga yetkazib berish tinglab tushunishning darajama-daraja rivojlanib borishiga imkon beradi. O'zbek tilini o'rganishda tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun o'ziga xos usullar maqola davomida tadqiq etildi, shuningdek, A1 va A2 darajadagi misollar tanlangan uslubga mos ravishda namuna sifatida keltirildi. Keltirilgan darajada xos shakllarning tadrijiy ravishda o'rganilishi o'zbek tilini o'rganishda soha mutaxassisi bo'lishga imkon beruvchi omil hisoblanadi. **Kalit so'zlar:** o'zbek tili, xorijiy til, tinglab tushunish ko'nikmasi, kompetensiya, A1 va A2 daraja, tadqiq etish. **Абстрактный.** В данной статье рассматривается развитие навыков аудирования при обучении узбекскому языку как иностранному. Следует отметить, что работа над навыками аудирования при изучении языка и донесение до учащихся содержания и сути компетенций, представляемых преподавателем, позволяет постепенно развивать аудирование. В статье рассматриваются конкретные методы развития навыков аудирования при изучении узбекского языка, а также приводятся примеры из уровней A1 и A2 в соответствии с выбранным методом. Постепенное изучение конкретных форм на вышеуказанном уровне является фактором, позволяющим стать экспертом в области изучения узбекского языка.

Ключевые слова: узбекский язык, иностранный язык, навыки аудирования, компетентность, уровни A1 и A2, исследование.



<i>Navruzova Xosiyat Izzatullo qizi. ILMIY-OMMABOP USLUBIDAGI MATNNI TUSHUNISHDA LINGVISTIK BILIMNING O'RNI</i>	701
<i>Odiljonova Nilufar Abduvohob qizi. O'ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O'QITISHDA TINGLAB TUSHUNISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH (A1 VA A2 DARAJALAR MISOLIDA) РАЗВИТИЕ КОМПЕТЕНЦИИ АУДИРОВАНИЯ В ПРОЦЕССЕ</i>	706
<i>Normuminova Dilobar Nuriddinovna. ONA TILI TA'LIMIDA SINFDAN TASHQARI ISHLAR: XORIY TAJRIBASI</i>	712
<i>Rahmonova Dinora Nu'mon qizi. SINTAKSISNI O'QITISHDA BOSQICHLI TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH</i>	716
<i>Rasulova Mushtariybonu Ahmadjon qizi. ONA TILI TA'LIMIDA O'QUVCHILARNING O'QISH SAVODXONLIGI KO'NIKMALARINI BAHOLOVCHI TOPSHIRIQLAR METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH</i>	721
<i>Saparova Saodat Ataxan qizi. ONA TILI DARSLARIDA ANIMATSIYADAN FOYDALANISH</i>	727
<i>Sarimsakova Nigora Raxmatovna. TALABALARDA ILMIY-OMMABOP MATN YARATISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH</i>	731
<i>Seytaliyeva Nodiraxon. TURKIY TILLAR TARAQQIYOTI VA ZAMONAVIY LINGVODIDAKTIKA MASALALARI</i>	735
<i>Tog'onova Gulshirin Oltiboyevna. ONA TILI DARSLARIDA O'QUVSHILARINING O'QIB TUSHUNISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH USULLARI</i>	742
<i>Tursun Shokirjon Alisher o'g'li. OLIY TA'LIMDA "TIL O'RGANISH VA TIL O'ZLASHTIRISH" MAVZUSINI O'QITISH YUZASIDAN METODIK TAVSIYALAR</i>	747
<i>Turg'unova Nilufar Muxiddin qizi. 8-SINF ONA TILI DARSLARIDA O'QUV LOYIHALARI BILAN ISHLASH MAZMUNI</i>	752
<i>To'rayeva Shaxnoza Baxodirovna. ASSOTSIATIV USUL ORQALI IMLO SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH</i>	756
<i>Umarova Iroda Shavkatjon qizi. TIL TA'LIMIDA SUN'IY INTELLEKT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR INTEGRATSIYASI: NAZARIY ASOSLAR, METODIK YONDASHUVLAR VA AMALIY TAVSIYALAR</i>	762
<i>Umurzakova Zuxraxon Yusupjon qizi. ONA TILI DARSLARI UCHUN RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA O'QUV TOPSHIRIQLARINI YARATISH</i>	767
<i>Usmonova Yulduz Faxriddin qizi. HAMKORLIK TEXNOLOGIYASINI SHAKLLANTIRISHGA OID YONDASHUVLAR</i>	774
<i>Muhamedova Saodat Xudoyberdiyevna, Shirinova Yekaterina Turakulovna. TIL TA'LIMIDA PRAGMATIK YONADASHUVNING AHAMIYATI</i>	780
<i>Xaydarova Madinaxon Umidjonovna. SINERGETIK YONDASHUV ASOSIDA LINGVISTIK KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH</i>	785
<i>Feruza G'aybulloyeva. ONA TILI TA'LIMIDA O'QUVCHILAR OG'ZAKI</i>	790

